

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O'ZBEK FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI KAFEDRASI**

**Ogahiy she'riyatida kitobat san'ati
(malakaviy bitiruv ishi)**

Bajardi:

Do'smatova Q.

Ilmiy rahbar:

dots. Xoliqulova G.

SAMARQAND -2011

Alisher Navoiy nomidagi SamDU o'zbek filologiya fakulteti bitiruvchisi

Do'smatova Qunduzning «Ogahiy she'riyatida kitobat san'ati»

mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi

REJASI

KIRISH

Ishning umumiy tavsifi.

ASOSIY QISM:

I. BOB. Harf san'ati va uning o'zbek adabiyotidagi namunalari.

II. BOB. Ogahiy she'riyatida kitobat san'ati.

XULOSA.

Adabiyotlari ro'yxati.

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Ko'p asrlik tarixga ega madaniy va adabiy merosimizga munosabat istiqlol tufayli tubdan o'zgardi. Xalqimiz tarixi, dini va adabiyoti, ma'naviy qadriyatiga e'tibor kuchayib, ularning mavqeini tiklash, xalqqa asl holida yetkazish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu esa boshqa sohalar qatori adabiyotshunoslikda ham teran ilmiy izlanishlar olib borish, adabiy merosga yangicha nuqtayi nazardan yondashish zaruratini ko'rsatdi. O'tmishda yashab ijod etgan shoir va adiblar merosini xolisona o'rganish va munosib baholash har qachongidan dolzarb vazifaga aylandi.

Yurtboshimiz mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq adabiyot ahliga har tomonlama yordam ko'rsatish, ijod erkinligini ta'minlash, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yoritib kelingan madaniy merosni tiklash, tom mo'noda tahlil va talqin etish borasida davlat siyosati darajasida samarali ishlarga e'tibor qaratmoqda. «Agar biz O'zbekistonni dunyoga tarannum etmoqchi bo'lsak, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqcha, uni avlodlar xotirasida abadiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalombor, buyuk yozuvchilarning ijodini chuqur o'rganish, buyuk shoir, buyuk ijodkorlarni tayyorlashimiz kerak. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa – millat yashaydi».¹

Milliy istiqlol g'oyasida asosli ko'rsatilib o'tilganidek, bizning o'tmish merosimiz hamma davrda inson tarbiyasida muhim o'rin tutgan. Binobarin, adabiyot go'zallikdir. Bu go'zallikning tarbiyadagi o'ri beqiyos.

XIX asr Xorazm adabiy muhiti xalqimiz madaniy merosining ajralmas bir qismini tashkil etadi. Bu adabiy-ijodiy muhit o'nlab iste'dod sohiblarini tarbiyalab kamolga yetkazgan. Ulardan biri Muhammadrizo Ogahiy (1809-

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat, 2008. 139-bet.

1874) bo'lib, u o'z zamonining mashhur shoiri, muarrix (tarixchisi), tarixchi va tarjimoni, davlat arbobi bo'lgan. Uning shoirlik, tarjimonlik, muarrixlik faoliyatini tadqiq etish va asarlarini xalqqa yetkazish, ulardagi joziba, badiiylilik qirralarini ochish, tahlil va talqin etish davr talabidirki, bu ayni paytda malakaviy bitiruv ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Ming yillik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. U yoki bu ijodkor haqida so'z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan.

Ogahiy adabiy merosi mazmun, badiiy jihatdan yuksak mavqega ega poetik asarlar bo'lib, ular milliy mafkuramizni mustahkamlash, yosh avlodni barkamol, ma'naviy jihatdan go'zal insonlar qilib tarbiyalashda katta ma'rifiy-estetik ahamiyatga egadir. Shu bois uning asarlarini, jumladan, she'riyati badiiyatini, xususan, kitobat san'atining shoir she'riyatida tutgan o'rni va ahamiyatini tadqiq etishni oldimizga maqsad qilib oldik.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Muhammadrizo Ogahiy ijodi o'zbek adabiyotshunosligida ancha keng o'rganilgan. Asarlari qayta-qayta nashr etilgan. Jumladan, 1958-1960- yillarda "Tanlangan asarlar"i, 1960-yilda "Taviz ul oshiqin" devoni, 1970- yillarda she'rlari, tarixiy, tarjima asarlaridan namunalar jamlangan 6 jildlik "Asarlar" to'plami chop etildi. Mustaqillik yillarida ham Ogahiy lirikasi "Sarv qomat ko'rmisham" nomida (2007), tarixiy asarlarida "Zubdat ut tavorix" ("Tarixlar qaymog'i") nashri amalga oshirildi.

Ogahiy haqida o'zining tarixiy asarlari, Bayoniy, Komil Xorazmiy, Feruz asarlarida, bir qancha tazkiralarda ma'lumotlar uchraydi.²

Ushbu manbalarni kuzatib, Ogahiy Xiva adabiy muhitida yetakchi vazifani ado etgan, degan xulosaga kelish mumkin. Bu hududda yashagan bir necha avlod Ogahiyning ustozlari sifatida ulug'laydi. Shoir Komil Xorazmiy uнга juda yuqori baho beradi. Ogahiyning fazl-u donishda yagonaligi, so'zining qadri balandligi, ishqning tilsimlaridan ogoh ijodkorligini quyidagicha e'tirof etadi:

Ulki ogohlarning ogohidur,
Fahm-u donnish sipehrining mahidur.
So'zi ortiqdur guhardin ham,
Fazl-u donishda olam ichra alam.
Sozni har necha qilsa bozori,
Bordur olamda bir xaridori.³

Shu adabiy muhit rahnamosi Muhammad Rahim II – Feruz Ogahiyning o'ziga ustoz deb oshkora e'lon etadi. Faqat ijodda emas, balki davlatni boshqarishda ham uning ma'naviy madadiga hamisha mushtoqlik sezadi. Buni biz quyidagi bayt orqali ham sezishimiz mumkin:

Komil ersam nazm aro feruzdek ermas ajab,
Ogahiydur she'r mashq aylarda ustozim mening.⁴

² Qarang: Баёний Мухаммад Юсуф. Шажараи Хоразмшоҳий. – Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 104 б.; Лафасий. Хива шоир ва ёзувчиларининг таржимаи ҳоллари. –Тошкент, ЎзФА нашриёти, 1944; Қайюмов П. Тазкираи Қайюмий. –Тошкент, ўзФА нашриёти, 1998, 1-дафтар.

³ Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. (XVI-XIXаср I ярми) -Тошкент, Фан, 2006. 216-бет.

⁴ Yuqoridagi asar, 216-bet.

Ogahiy adabiy merosi mashhur sharqshunos olimlardan Bartold, Samaylovich, Yakubovskiy, shuningdek, Y. G'ulomov, Q. Munirov kabilarning tarixnavislikka, V.Zohidov, V.Abdullayev, G'. Karimov, S.Dolimov, R.Majidiy, G'.G'anixo'jayev, B.Valixo'jayev, A.Abdug'afurov, R.Orzibekov, N.Jumaxo'jayev, I. Adizova kabilarning adabiyotshunoslikka, G'aybulla as-Salom, J.Sharipov, N.Komilovlarning tarjimashunoslikka oid asarlarida tadqiq etildi.⁵

Adabiyotshunos G'.G'anixo'jayev "Taviz ul oshiqin" devonining tanqidiy matnini tayyorladi. A.Abdug'afurov va N.Jumaxo'jayevlar Ogahiyning shoir, tarjimon, muarrix sifatidagi faoliyatini chuqurroq o'rganishga bag'ishlangan ilmiy asarlar e'lon qildi.

Muhammadrizo Ogahiydan bizgacha juda katta adabiy meros yetib kelgan. Jumladan, yirik hajmli turkiy va forsiy she'rlaridan iborat "Ta'viz ul oshiqin" ("Oshiqlar tumori") devoni shoirning yuksak salohiyatli ijodkor ekanligini dalillovchi to'plamdir.

Ogahiy muarrix sifatida Munis boshlagan, lekin tugata olmagan "Firdavs ul iqbol" asarini nihoyasiga yetkazish bilan birga yana beshta tarixiy asar yaratdi. Olloqulixon (1825-1842) hukmronligi davri voqealariga bag'ishlangan "Riyoz ud-davla", Rahimquli tarixiga (1843-1846) bag'ishlangan "Zubdat ut-tavorix", Muhammad Amin II (1846-1855) saltanati davrida bo'lib o'tgan voqealar tasvirlangan "Jome' ul voqeoti sultoniyy", Sayid Muhammadxon hukmronligi (1856-1865) davriga

⁵ Qarang: Зоҳидов В. Ўзбек адабиёти тарихидан. – Тошкент, 1961, 132-170-бетлар; Муниров Қ. Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. – Тошкент, ЎзФА нашриёти, 1960; Мажидий Р. Огаҳий лирикаси. – Тошкент, ЎзФА нашриёти, 1963; Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент, Ўкитувчи, 1980. 316-345-бетлар; Орзобеков Р. XIX асрнинг биринчи ярми ўзбек адабиёти. – Самарқанд, СамДУ наشري, 2001; Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. –Тошкент, Фан, 2006.

bag'ishlangan "Gulshani davlat", Muhammad Rahim II – Feruz tarixiga atalgan "Shohidi iqbol" yoki "Iqboli Feruziy" asarlari shular jumlasidan.

Ogahiy tarjimon sifatida to'qqizta badiiy, oltita tarixiy, to'rtta axloqiy, axloqiy-falsafiy xarakterdagi asarlarni turkiy tilga o'giran. Jumladan, Nizomiyni «Haft paykar», Dehlaviyni «Hasht behisht», Kaykavusning «Qobusnoma», Muhammad Vorisning «Zubdatul hikoyat», «Shahri daloyil al-hayrat», Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy», Abdurahmon Jomiyni «Bahoriston», «Yusuf va Zulaxo», «Salomon va Absol», Sa'diyni «Guliston», Hiloliyni «Shoh va Gado», Mirxondning «Ravzat us-safo» (Munis boshlagan), Muhammad Mahdiy Astrobodyning «Tarixi jahonkushoyi Nodiriy», Zayniddin Vosifiyning «Badoe' ul-vaqoe», Shayx Ali G'ijduvoniyni «Miftoh ut-tolibin», Muhammad Muqim Hirotiyning «Tabaqoti Akbarshohiy», Muhammad Yusuf Munshining «Tazkirayi Muqimxoniy», Rizoqulixon Hidoyatning «Ravzat us-safoyi Nosiriy» kabi asarlar Ogahiy tomonidan nasriy, she'riy va nasriy-she'riy usullarda o'zbek tiliga tarjima etildi. Ogahiy ijodining mashaqqatli bu jihatlari tarjimashunos, tasavvufshunos olim N.Komilovning «Bu qadim san'at» monografiyasida ancha keng tahlil etilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mazkur malkaviy bitiruv ishi milliy istiqlol g'oyasi talablari asosida Ogahiy lirikasi badiiyati, xususan, shoirning kitobat san'atini qo'llashdagi mahoratini tadqiq etishga bag'ishlangan. Ijodkor she'riyatida kitobat san'atining qo'llanilishi yaxlit tahlil etilmagan. Shoir lirikasini shu nuqtayi nazardan o'rganish undagi yangi-yangi g'oyaviy mazmunlarni ochib beradi.

Tadqiqotning manbai. Malakaviy bitiruv ishiga Muhammadrizo Ogahiyning g'azal, mustazod, murabba', muxammas, musaddas, ruboiy,

tuyuqlaridan iborat “Sarv qomat ko’rmisham” (2007, “Yangi asr avlodi” nashriyoti) kitobi asosiy manba vazifasini o’tadi.

Malakaviy bitiruv ishining tarkibiy tuzilishi. Ishning umumiy hajmi ... bet bo’lib, kirish, ikki asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

1. Harf san'ati va uning o'zbek adabiyotidagi namunalari.

Ma'lumki, adabiyot nazariyasi qadimdan uchga ajratilgan holda o'rganilgan, uning nazariyalari ishlab chiqilgan: ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi bade'. Ilmi bade' - fikrni ravon va nafis ifodalash yo'llari va vositalari, badiiy san'atlar haqidagi bo'limdir.

Ilmi bade'ga doir dastlabki asarlar arab olimlari tomonidan yaratilgan. Nasr binni Hasanning «Mahosin ul kalom», Ibn al- Mo'tazning «Kitob ul-bade'», Quddama ibn Ja'farning «Naqd ush-she'r» nomli asarlari fikrimiz dalilidir.

Arab olimlarining she'r nazariyasi bo'yicha yaratgan asarlari O'rta Osiyo va Xuroson olimlarini ham shu sohada jiddiy ishlar qilishga ilhomlantirdi. Rashidi Votvotning «Hadoyiq us -sehr», Shamsiddin Muhammad binni Roziyning «Al mo''jam...», Vahidi Tabriziyning «Jam'i muxtasar», Atoulloh Husayning «Badoe' us-sanoe'» asarlari shular jumlasidandir. Turkiy (o'zbek) tilidagi ilk adabiyotshunoslikka oid asar Ahmad Taroziyning «Funun ul-balog'a» asari bo'lib, unda adabiy janrlar, vaznlar qatori badiiy san'atlar haqida ham nazariy ma'lumotlar berilgan, ularning nafosati, jozibasi misollar bilan dalillangan.

She'riy san'atlar badiiy asardan o'rin olgan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyligi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan.

U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan g'oya o'z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy muommolar mohiyati va ko'lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo'llangan she'riy san'atlarning rang-

barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan.

Adabiyotimiz tarixi yana shundan dalolat beradiki, she'riy san'atlar shoir badiiy salohiyatini ko'z-ko'z qilish, uning xilma-xil san'atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko'lami, yuksak ijtimoiy-axloqiy g'oyalarni jonlantirish san'atkorligi ifodasi bo'lib kelgan.

Adabiyotshunosligimizda she'riy san'atlarni ma'naviy va lafziy san'atlarga ajratish an'ana bo'lib kelgan. Ma'naviy san'atlar "Sanoyi'i ma'naviya" deb atalgan. U asardagi g'oyalarni yorqin ifodalash, lirik va epik timsollarni hayotiyroq gavdalantirish, ularning ma'naviy qiyofalari, his-tuyg'ularini ta'sirchanroq aks ettirishga xizmat qilgan. Lafziy san'atlar "Sanoyi'i lafziya" deb yuritilib, asarning til jihatdan jozibadorligini, ohangdorligini ta'minlashga yordam bergan. Lafziy san'atlar so'zning tovush tomoniga aloqador san'atlardir.

Kitobat san'ati lafziy san'atlardan biri bo'lib, shariyatimizda keng qo'llanilib kelingan. Bu san'at arab alifbosi harflari shaklidan lirik va epik timsollar chizishda foydalanishni nazarda tutadi.

Ma'lumki, arab alifbosi to'g'ri va egri, yoysimon va doirasimon shakllardagi harflardan tashkil topgan. Sharq shoirlari ana shu shakllarga qiyos usuli bilan yondashib muhim ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy-axloqiy g'oyalarni ifodalashda mahorat bilan foydalanganlar.⁶

⁶ Qarang: Hojiaxmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. –Toshkent, Sharq, 1999. 103-105-betlar; Orzibekov P. She'riy san'atlar ta'hlili. –Samarqand, SamDU nashri, 2000. 36-48-betlar; Hojiaxmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? –Toshkent, Sharq, 2001. 22-23-betlar; Asallayev A. va boshqalar. Badiiy san'at jozibasini. –Toshkent, Yangi asr avlodi, 2005. 21-22-betlar; Isoxov E. S'z san'ati s'zligi. –Toshkent, Zarqalam, 2006.

Mazkur san'at ba'zi adabiyotlarda istixroj, harf, tasmiya san'ati istilohlari bilan yuritiladi.⁷ Ayrim adabiyotlarda esa kitobat, yani harf san'ati istixroj san'atidan farqlanadi. Ya'ni kitobat san'ati baytda arab harflarini nomlash yoki inson uzvlarini arab yozuvidagi harflarga o'xshatib tasvirlash usulidir. Istixroj – keltirib chiqarmoq, so'z yasamoq ma'nolarini bildiradi. Istixroj kitobat san'ati yordamida yaratiladi. Ularning farqiga kelsak, kitobatda inson uzvlari arab harflariga o'xshatiladi. Istixrojda o'xshatilgan harflar yig'ilib, ulardan biror so'z hosil qilinadi.⁸

Istixroj atamasining lug'aviy ma'nosi "qazib chiqarmoq"dir. Ijodkor istixroj san'atiga murojaat etganida o'quvchilar diqqatini yozuvdagi harflar munosabatiga jalb etadi va shu harflar orqali o'zi ko'zlagan poetik niyatni ochib berishni ko'zda tutadi.

Istixrojlar tabiatini izchil o'zlashtirish uchun uning xillaridan voqif bo'lmoq kerak. Shoir arab tilidagi harflarni berib, ularning yig'indisini ham baytda aytib o'tishni (sezdirib yoki sezdirmay) lozim topadi. Bunday usul goh jo'n harflar nominigina aytish va goho kitobat orqali keltirilgan bo'lishi mumkin.

Shoir Muhammadniyoz Nishotiyning "Husn-u Dil" dostonidagi quyidagi baytlar shunday san'atning yetuk namunalaridir:

Ikki lom-u zulf aro ko'rgach alifdek qaddini,

Tong emas, ey ahli dark bo'lmas tilimning nutqi lol.⁹

⁷ Qarang: Орзибеков Р.Шеърӣй санъатлар таҳлили. –Самарқанд, СамДУ нашри, 2000.36-бет.

⁸ Bu haqda qarang: Асаллайев А. ва бошқалар. Бадиий санъат жозибаси. –Тошкент, Янги аср авлоди, 2005. 21-бет.

⁹ Нишотий «Хусн ва Дил». Лирика. –Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967. 214-бет.

Muallif mahbuba sochlari ikki “lom” harfiga o’xshatib, sochlari orasidagi qomatini “alif” sifatida ko’rmoqda. Demak, alifni ikki «lom» harflari orasida keltirganda «lol» (ل+ل+ل) so’zi kelib chiqadi.

Istixrojlar badiiylikning uzviy bir qismi sifatida asar ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi bidiiyat imkoniyatlaridan biridir, chunonchi, yuqoridagi misolga zehn salsak, lirik qahramonning lol bo’lib qolishiga ma’shuqaning «lom» ل harfi kabi (alfavitning shaklan uzun harfi) ikki zulfi va alifdek tik va to’g’ri qomati sababchi ekanligi aytilmoqda.

Ba’zan shoirlar o’z asarlarida ishorali istixrojlarni ham qo’llaydilar. Bunda ko’zda tutilayotgan predmet nomining ifodasidagi harflar, ayrim ishoralar, o’xshatishlar orqali o’quvchi yodiga tushirilishi diqqat markazida turadi.

Otim erur tir-u kamondin nishon,
Sanga nishon bergusi tiru kamon.

Chunki otim bordur «alif» birla «nun»,
Tir kamon sorig’adur rahnamun.¹⁰

Baytlardan bilinadiki, o’q «alif»ga, kamon esa «nun»ga o’xshash. “Alif” “nun”ga qo’shilsa (ن + ا), On nomi paydo bo’ladi.

«Husn-u Dil» dostonidagi qahramonlardan On tengsiz pahlavon. U bir hamla bilan Fuod (Dil)ni band qilib oladi. Demak, pahlavon obrazi qiyofasini portretini aniq gavdalantirishda istixroj shoirga ko’makka kelgan.

Ondan o’q va yoy darak beradi. Kamon va o’qning doimiy xizmati esa jangda qurollik vazifasidir. E’tiborli jihat o’q «alif»ga (ا), kamon «nun»ga (ن) monand.

¹⁰ Yuqoridagi asar, 372-bet.

Klassik adabiyotimizda riyoziy va mashaqqatli istixrojlarni ham ko'rishimiz mumkin. Istixrojning alohida bu xilini bunday atalishining boisi shundaki, kitobxon ko'z o'ngida chuqur mulohaza yuritib, muallif harflar o'yinidan qaysi so'zni nazarda tutayotganini topmog'i lozim. Biroq buni muammo bilan zinhor aralashtirib yubormaslik kerak. Masalan, Muhammad Fuzuliy o'zining «Layli va Majnun» dostonida quyidagicha baytlarni yaratadiki, bu riyoziy yoki mashaqqatli istixrojning ajoyib namunasi bo'la oladi:

Ilm-u xata umrini aylayub sarf,
Mashq etmish edi hamin ikki harf.

Bir safhada «lom»u «yo» muqarrar,
Yozarda oni qilardi azbar.¹¹

Demak, Majnun «lom» (ل) va «yo» (ي) harflarini mashq etar ekan, har ikki harfni takror-takror yozadi. Arab yozuvida «yo» harfi «ay» va «i» tovushlarini ifodalagani uchun «l» va «yo» harflari takroridan «Layli» (ليلى) ismi kelib chiqadi. Majnun xat mashq qiladi, bu faqat tashqi ko'rinishdangina shundaydir, u aslida «lom» va «yo» harflarini yonma-yon qo'yib takrorlaydi. Ya'ni u Laylini yodga oladi. Qayta-qayta mahbubasi ismini yurak va qog'ozda zikr etadi.

Bu usul bilan muallif o'z qahramoni qalbiga ishq naqadar tug'yon solgani, uning qo'lidan ixtiyorini olib hatto xat mashqini ham ishq yo'lidagi o'rtanishlarga almashtirganini bo'rttirib bera olgan.

Kitobat san'atining she'riyatimizdagi ilk namunalarini XIV asr oxiri XV asr boshlarida ijod etgan shoirlar she'riyatida uchratamiz. Chunonchi, Lutfiy yaratgan g'azallarning ayrim baytlariga e'tibor qaratsak:

¹¹ Орзибеков Р.Шеърӣ санъатлар таҳлили. –Самарқанд, СамДУ нашри, 2000.38-бет.

Chun o'larmen ul alifdek qaddu tor og'zing uchun,
Sen o'tarda turbatimdin qo'pg'usidur oh-oh.

yoki,

Oydek yuzungda og'iz muvajjah tushub turur,
Har qaydakim qamar o'la tushgay aroda mim.

yoki,

Jon dedi oni Lutfi yiroqtin chu ko'rindi,
Jim sochi, alif qaddi bila ul qoshi nuni.¹²

Mazkur baytlarda arab zuvidagi «alif» (ا), «jim» (ج), «nun» (ن), «mim» (م) harflari shaklidan mahbuba qiyofasini chizishda mohirona foydalanganini kuzatamiz. Bunda “alif”ning to’g’riligi yor qaddining adilligiga, “mim”ning ixchamligi og’izning kichikligiga, “jim”ning gajagi sochning jingalakligiga, “nun”ning yoy holati qoshning egik, qayrilma ekaniga ishora bo’lib kelmoqda.

Shuni aytish kerakki, o'zbek mumtoz adabiyotida harf – kitobat san'atiga doir eng go'zal, eng hayratomuz bayt-u misralar Alisher Navoiy ijodida uchraydi. U hatto «Xazoyin ul-maoniy» devoniga kiritilgan g'azallarini ham kitobat san'ati asosida joylashtirishni ma'qul ko'radi. Navoiyning lirik va epik she'riyati qatlamlarida kitobat san'atiga daxldor yuzlab baytlarni, hatto tuyuq, ruboiy, qit'a shaklidagi alohida she'rlarni uchratamiz. Uning quyidagi ruboiysi ayni shu san'at asosida vujudga kelgan:

Jonimdagi jim ikki dolingga fido,
Andin so'ng alif toza niholingg'a fido,
Nuni dag'i anbarin hilolingg'a fido,
Qolgan ikki nuqta ikki xolingg'a fido.¹³

¹² Лутфий шеърятидан. –Тошкент, Ўзбекистон, 1985. 16-22-бетлар..

«Jon» so'zi uch harfdan tashkil topgan, ya'ni «jim» (ج), «alif» (ا), «nun» (ن). Har uchala harfning ham inson uzvlari bilan o'xshash jihatlari borligi yuqorida keltirilgan Lutfiy baytlarida ham kuzatildi. Navoiy ham ana shu o'shashlik, monandlikka ishora qiladi. «Jon» so'zidagi «jim» ikki dol (zulf)ga, «alif» tik qadga, «nun» hiloldek qoshga, «jim» va «nun»dagi ikki nuqta ikki xolga sadqaligi aytilmoqda. Bir so'z bilan aytganda oshiq o'z jonini ma'shuqa uchun fido qilishga tayyor. Mazkur ruboiyning birinchi misrasida «dol» (د) harfi yorning ikki gajak zulfiga ishoradir. Bu ham kitobat san'atining yorqin namunasidir.

Navoiyning quyidagi baytida ham arab alifbosidagi «mim», «lom», «sin» harflari orqali ma'shuqa portreti, tashqi go'zalligi va xatti-harakatlariga doir jozibali lavha aks ettirilgan:

Tararda uqdaliq zulfin musallas ayladi chinlar,

Chirix «mim», ikki zulfi ikki «lom», iynak tarog' «sin»lar.

Shuning uchun ham Navoiy zamoni hamda undan keyin yashab ijod etgan barcha shoirlar bu buyuk so'z ustasi, she'riyat sultonining tajribalarida ilhom oldilar. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatida ham mazkur san'atning bir qator nodir namunalari yaratilgan. Chunonchi, uning

Qadding alif-u qoshing erur yo,

Desam ne ajab agar seni oy.¹⁴

kabi baytlarida ushbu san'atdan unumli foydalanilgan.

Ko'pgina san'at ustalari, ijodkorlar kabi Xoja (XVI asr) ham o'z fikrlarini berishda kitobat, istixroj san'atidan unumli foydalangan:

Gar alifdek to'g'ri bo'lsang, bol ichinda tut maqom,

Lom alifdek egri bo'lsang, bo'l balo birla mudom.¹⁵

¹³ Ходжахмедов А. Мумтоз бадийат малоҳати. –Тошкент, Шарк, 1999. 104-бет.

¹⁴ Yuqoridagi asar, 104-bet.

«Alif» (ا) to'g'ri, «lom alif» (لا) egri. «Alif» to'g'ri bo'lganligi uchun ham «bol» (بال = ب + ل + ا) so'zining markazida maskan tutdi. «Alif»dek to'g'ri bo'lgan, to'g'ri yashagan kishining hayoti bol, ya'ni asaldek shirin bo'ladi. «Lomalif» egri. Shuning uchun bu harflar «balo» (لا ب = ل + ا + ب) so'zi bilan birga. Egri insonlar hayoti ham balolar ichida kechadi.

Bunday tasvirlarni So'fi Olloyor baytlarida ham kuzatamiz:

Kalidi ganji ma'ne, kim zabondir,

Anga bir nuqta ko'b qo'ysang ziyondir.

Bir nuqta ko'p qo'yilishi bilan «zabon» (زبان) so'zi «ziyon»ga (زین) aylanganidek, behuda bir so'z sening ziyoningga ishlashi mumkin.

Kitobat san'ati keyingi davr klassik shoirlarimiz ijodida ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bunga misol qilib Furqat, Muqimiy, Uvaysiy, Avaz O'tarlar ijodini keltirishimiz mumkin. Masalan, Uvaysiy qalamiga mansub quyidagi baytlarga e'tibor qaratsak:

Ko'z tasadduqdir sening xurshid tal'at husningga,

Qaddu dolim ham tasadduq chun alif raftoringga.¹⁶

Yoki,

Vasling umidida nun bo'ldi firoqing yukidin,

Bo'lmadi ta'siri hech bu qaddi dolimni senga.¹⁷

Birinchi baytda oshiq va ma'shuq qaddi orqali tazod san'atining o'ziga xos turi kitobat san'ati asosida yaratilgan. Bunda lirik qahramon qaddi «dol»ga (د), ma'shuq raftori esa an'anaviy tarzda «alif» (ا)ga o'xshatilgan. Buning sababi ma'lum. Chunki oshiq qaddini ayriliq dardi «dol» yanglig' egib tashlagan. Ma'shuq esa bundan bexabar, xabardor bo'lsa ham

¹⁵ Орзибеков Р.Шеърӣ санъатлар таҳлили. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2000. 40-бет.

¹⁶ Увайсий. Мазмун маъдани. –Тошкент, Академнашр, 2010. 7-бет.

¹⁷ Yuqoridagi asar, 16-bet.

e'tiborsiz. Chindan ham, tik to'g'ri chiziq ko'rinishidagi "alif" harfi shakl jihatidan inson qomatiga, bukik «dol» harfi esa egilgan qomatga o'xshaydi.

Ikkinchi baytda arab alifbosidagi «nun» (ن) va «dol» (د) harflari orqali kitobat san'ati hosil qilingan. Ma'shuqaning e'tiborsizligi, ayriliq yuki, lirik qahramonning «dol»dek qaddini yanada egib «nun» etgan, lekin bu ham ma'shuqaga ta'sir eta olmaydi. U yana beparvo, rahmsiz. Ko'rinadiki, shoira har ikki misolda qadni tasvirini berar ekan, kitobatdan o'rinli foydalanadi. Bu esa she'r ta'sirchanligi, obrazililigini oshirishga xizmat qilgan.

Kitobat san'atini an'anaviy davom ettirgan, uning xilma-xil imkoniyatlarini kashf etib ko'plab hayratomuz baytlar yaratgan ijodkorlardan biri Zokirjon Furqatdir. Uning g'azalidagi

Ul alifdek qomatining hasrati,

Dol yanglig' ayladi qaddim duto¹⁸

baytidagi «ailf»dek va «dol» yanglig' qiyoslariga diqqat qilaylik. Shoir o'z mahbubasining tik qomatini arab alifbosidagi «alif» (ا)ga o'xshatsa, o'zining bukilgan qaddini «dol» (د) harfiga tenglashtiradi. Bu an'anaviy tasvir. Endi shoirning quyidagi baytlariga e'tibor qaratsak:

«Nuqta lab ustida bejodur», dedim, aydi kulib,

«Sahv qilmish kotibi qudrat, magar tahrirda».¹⁹

Mazkur baytda kitobat san'atidan tashqari, istiora, tashbih, diolog san'atidan mahorat bilan foydalanilgan. Baytda yor labidagi xol borligini anglatmoqchi bo'lib, uni nuqtaga o'xshatmoqda. Shu maqsadda arab alifbosidagi «lab» (ل) so'zining yozilishidan foydalanib so'z o'yini yasaydi, ya'ni istixrojdan foydalanadi. Shoir yorga xitobon «lab» so'zida nuqta (xol) pastda bo'lguvchi edi, sening labingda nuqtaning lab ustida turishini bejo

¹⁸ Ходжахмедов А. Мумтоз бадийят малоҳати. –Тошкент, Шарк, 1999. 103-бет.

¹⁹ Yuqoridagi asar, 104-bet.

deb hazil qiladi. Ma'shuqa esa «kotib yozayotgan, yaratayotgan vaqtda xato (sahv) qilib nuqtani pastga emas, yuqoriga qo'yib yuborgan», deya oshiqdan ham sho'xroq javob qaytaradi. Darhaqiqat, «lab» (لب) so'zida «be»ning nuqtasi satr pastida turadi. Lekin ma'shuqaning xoli lab ustida. Bu go'zallik belgisi. Shoir baytda harflar yordamida ham so'z, ham ma'shuqa tasvirni bergan, ya'ni kitobat va istixroj san'atining uyg'unlashtirgan.

Inson uzvlariga asoslangan kitobat, so'zlarning hosil bo'lishiga asoslangan istixroj san'atlari uyg'unlashgan go'zal tasvirlar Avaz O'tar ijodida ham tez-tez uchraydi:

Xayolimga ketursam har qachon ul qaddi zeboni,
«Alif»dek jon aro asror ko'ngul jon ichra pinhoni.²⁰

Har qachon qaddi zebo yorimni xayolimga keltirsam, uning «alif» kabi qaddi jonim ichida yashirin bo'ladi. Ya'ni jonim u bilan tirikdir, mavjuddir. Bundan tashqari, baytda «alif» harfi «jon» (جان = ن + ا + ج) so'zining asosini tashkil etuvchi harf ekanligiga ishora bor. Demak, «alif» «jon» so'zining asosini tashkil etganidek, ma'shuqaning qaddi ham oshiq jonining, hayotining mazmunini tashkil etadi. Shoirning quyidagi baytida ham ana shunday tasvirlar kuzatiladi:

Jonga orom berur jonda alifdek turushing,
Ko'nglim oromin olur ruhi ravondek yurishing.²¹

Endi ma'shuqaning alifdek qaddi oshiq jonida, hayotida bo'lishi uning (oshiqning – D.Q.) joniga orom bag'ishlaydi. Go'zal, nozli yurishlari esa ko'ngliga orom beradi. Bunda ham «alif» (ا) oshiq jonini va «jon» so'zining asosini tashkil etgan. Quyidagi baytda esa faqat istixroj san'ati kuzatiladi.

Ey Avaz, balo jonga «ayn-u shin-u qof» erdi,

²⁰ Орзибеков Р.Шеърӣ санъатлар таҳлили. –Самарқанд, СамДУ нашри, 2000. 39-бет..

²¹ Yuqoridagi asar, 39-bet.

«Vov-u sod-u lom» ila daf' o'ldi hijronlar.

«A²² - Ayn», «sh - shin», «q - qof» harflaridan «ishq» (عشق) so'zi, «v - vov», «s - sod», «l - lom»dan «visol» (وصال) so'zlari hosil bo'lgan. Ya'ni ishq jonga balodir, visol esa unga davodir.

Kitobat san'atining ahamiyatli jihatlaridan biri shundaki, unda mubolag'aga zamin tug'dirish va tasvirlanayotgan siymoning go'zalligini yorqinlashtirishdir. Buni biz Sultonxonto'ra Ado ijodida ham kuzatamiz:

Ko'zi ayn, andin yoy aksi, og'zi mim erur,

Qoshlari ul nuna benzarkim, naim ustundadur.

Mahbubaning ko'zi «ayn»ga (ع, arabchada ko'zni «ayn» ham deydilar), burnini «yoy» (ی)ga, og'zini «mim» (م)ga, qoshini «nun» (ن)ga o'xshatib shoir o'z sevgilisining qoshi, ko'zi, burni, og'zining o'rnashishi tartibiga asosan «naim» - jannat (ن + ع + ی + م = نعيم) so'zini hosil qiladi. Bu bilan mahbuba jamolini jannatga qiyos etadi.

Kitobat san'ati nasriy asarlarda ham qo'llanilgan. Bunga o'tmishda yaratilgan diniy-didaktik, majoziy-tamsiliy janrdagi asarlarda dalillar ko'p. Ularda ham asar mualliflari bu san'atdan biror-bir axloqiy-ma'rifiy fikrni dalillash, ifodaga estetik ruh berish maqsadlarida foydalanganlar. Jumaladan, o'zbek mumtoz adabiyotining nodir namunasi sanalmish «Zarbulmasal»da ajoyib xalq maqollari, tamsillari, naqlari, qochirim so'zlari, hazil-mutoyiba va hajvga boy lavhalar ishlatilganligi ma'lum. Unda Gulxaniy o'zbek tilining nihoyatda boy til ekanini yana bir bor namoyish etgan. Alisher Navoiyning «Muhokamat ul lug'atayn» asarida ilgari surgan ilmiy-nazariy qarashlarini yana bir asar misolida isbotlaydi. Chindan ham badiiy nutqning jozibadorligi va o'ziga xosligi bilan Gulxaniy «Zarbulmasal»i o'ziga o'xshash boshqa tamsiliy asarlardan ajralib turadi.

²² «Ishq» arabcha so'z bo'lib, undagi «i» tovushi «ayn» harfi bilan yoziladi.

Masalan, Ko'rqush va Kulankir sulton suhbatidagi Ko'rqushning «G'ulom» haqidagi so'zlarini olaylik. «Nechukkim aytmishlar: Qum yig'ilib tosh bo'lmas, qul yig'ilib bosh bo'lmas. Forsiy ulusda qulni «g'ulom» derlar. Ishoratdurkim «g'ulom»ni boshidagi «g'ayn» (غ) bo'ynidagi «lom» (ل) bilan muttasil bog'lab g'uldek bo'lib tursa kerak...»²³ Bu harfiy so'z o'yinida Gulxaniy so'z boshidagi «g'ayn» (غ) va so'z o'rtasidagi «lom» (ل) «g'ulom» (غولام = م + ا + ل + و + غ) so'zining zanjirdek ushlab turishiga iroscha qiladi. Bu bilan zanjirdagi qulning ahvolini tasvirlaydi.

Yoki Kordon tilidan Turumtoyga Bozanda va Navozanda kabi ikki kabutarning sarguzashtini hikoya qilish davomida keltirilgan harfiy so'z o'yinini olaylik. «Safarga ko'p xaris qo'ymakim, anda bir nuqta afzunlikdin saqar surati bo'lur. Safarda rafi-q-u shafiq kerakkim hazrati rasululloh akram salohu alayhi vasallam hadisi shariflaridurkim» «Arrafiqu sulalat – at tariq».²⁴ Bunda arabcha «safar» (سفر) so'zidagi «fe» (ف)ga bir nuqta qo'shilsa, «saqar» (سقر) so'ziga aylanib jahannam ma'nosini anglatadi, ya'ni yo'l azobi, go'r azobi deganlaridek.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yashab ijod etgan Yusuf Saryomiyning 6 baytli quyidagi she'rida har bir bayt tarkibida bitta arabiy harf keltirib, uni ramziy ma'nolarini sharhlab besh harfdan «islom» so'zini vujudga keltirgan. G'azal matni quyidagicha:

Kel, ey dil aylama hargiz tazoy' avqot,
Umiding o'lsa sani Haq qoshida favzi najot.

Asosi manbai islom keldi besh adad,
«**Alif**»ki avvalidur, bilki taiyyiba kalimot.

²³ Ўзбек адабиёти. –Тошкент, Ўздавнашр, 1959. 522-бет.

²⁴ Yuqoridagi asar, 254-bet.

Ikkinchi «**sin**»i eturgay sani salomatg'a,
Bo'lurg'a noil o'lub, bo'ldi sanga farz salot.

Uchinchi «**lom**» o'ttuz kun, bir oy ro'zani farz,
Chu qildi hazrati Haq bandasiga bori hayot.

«**Alif**» binoyi chorum kimiki bo'lsa g'ani,
Ba amri shar' erur aylamas adoi zakot.

Beshinchi «**mim**» ila islomu din topti kamol,
Ki farzi hajji Haram bo'lsa roh be ofat.²⁵

«Alif», «sin», «lom», «alif», «mim» harflarining qo'shiluvidan «islom» so'zi kelib chiqadi. Maqsad faqat so'zni keltirib chiqarishgina emas, balki «islom» so'zi orqali so'zning mohiyati, dinning besh ustuni (imon, namoz, zakot, haj, ro'za) haqida atroflicha fikr yuritmoq, islom dinining mazmun-mohiti haqida kitobxonga badiiya jihatdan ma'lumot bermoqdir. Ma'lumki, islomdagi besh asosning birinchisi, imon keltirmoq. Ikkinchisi, namoz. Uchinchisi, o'ttiz kun, ya'ni bir oy ro'za tutmoq. «Lom» harfi abjad hisobida 30 raqamini anglatadi, shuningdek, «islom» so'zining uchinchi harfi hamdir. To'rtinchisi, zakot, beshinchisi, haj amali. Bu esa she'rning ma'rifiy jihatlarini belgilaydi.

Arab harflari qo'llangan holda yaratiladigan yana shunday san'at borki, hurufi hijo, hurufi dalolat deb yuritiladi. Bu she'riy san'at to'g'risida filologiya fanlari doktori, professor Rahmonqul Orzibekov shunday yozadi: «Hurufi hijo she'r yaratish usullaridan biri bo'lib, undagi qoida va talabga

²⁵ Орзобеков Р.Шеърый санъатлар таҳлили. –Самарқанд, СамДУ нашри, 2000. 47-бет.

ko'ra she'r yozmoqchi bo'lgan shoir shakl va mazmunga zarar yetkazmagan holda har bir band va misra boshida arab alifbosining ma'lum harfini bir hijo – bo'g'in qilib ishlatadi va mazkur hijo – harfdan keyin keladigan so'zning asar bandi yoki misra boshida hijo bo'lgan harf bilan boshlanishini ta'minlashi lozim. Bunday asarlar arab alifbosi soniga mos holda 28 yoki fors-tojik alifbosining 32 harfiga teng misralardan iborat bo'ladi».²⁶

Hurufi hijo poetik san'atida ham harf san'atiga xos xususiyatlar bor. Ayrim hollarda mazmunni oydinlashtirish, muddaoni quvvatlash va ta'sirni badiiylashtirish uchun foydalanilgan bunday usulni hurufi dalolat – isbotlovchi harflar ham deydi.

Ba'zan shoirlar butun bir she'rni shu san'at asosida yaratishga ham harakat qilganlar. Imomiddin Nasimiy, G'oyibiy, Boborahim Mashrab, Uzlat, Uvaysiy, Mahzun, Salimiy, turkman adabiyotidan G'oyibnazar G'oyibiy, qoraqalpoq adabiyotidan Xojiniyoz (Zevar) kabi ijodkorlar hurufi hijo san'ati bilan alohida she'rlar – g'azallar, muxammaslar, musaddaslar yaratganlar.

Bu san'atning badiiy ijod maydoniga kirib kelishi ancha qadimiy va uning boshqa yana xilma-xil namunalari yaratilgan deb faraz qilish mumkin. Chunki she'riyatda bu usulning ishlatilishi ma'lum ma'noda hurufiylik tariqatining maydonga kelishi bilan bog'liqdir. Akademik Hamid Araslining qayd etishicha, hurufiylik shahar hunarmandlarining zulmga, bedodlikka e'tirozini ifoda etuvchi, g'orat va bosqinchilik urushlariga norozilikni bildiruvchi oqim sifatida maydonga kelgan. Uning asoschisi tabrizlik Fazlulloh Naimiydir. Nasimiy uning shogirdi bo'lgan.²⁷

²⁶ Qarang: Орзобеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Тошкент, Фан, 1976. 76-бет; Машраб. Девон. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2006. 24-бет.

²⁷ Арасли Х. Имамиддин Насимий. _тошкент, Фан, 1973. 9-10-бетлар.

Arab alifbosidagi harflar 28 ta. Ammo unga lom-alifni qo'shib 29 ta ham deydilar. Sayyid Imomiddin Nasimiyning 1974-yili Bokuda chop etilgan «Sachilmish asarlar» kitobida hurufi hijoda yozilgan she'rlari alohida bir janr sifatida «Alif-lom» hamda «ters alifbo» - «lom-alif» sarlavhalarida berilgan. «Alif-lom» - «a» harfidan «l» harfigacha, «lom-alif» esa alifboning teskarisi – «l» harfidan «a» harfigacha bo'lgan harflar demakdir. Lekin arab alifbosi tartibida «lom-alif»dan so'ng «yo» harfi oxirgi harf hisoblanadi.

Hurufiyalar dualistik ta'limotni – materiya va ruhni e'tirof etadilar, inson sha'nini ulug'laydilar. Ular dunyodagi hamma ashyolar harflardan yaratilgan deb hisoblaydilar, ya'ni harflarni – sonlarni ilohiylashtiradilar. Ularning fikricha, olam ikkitadir: biri - koinot, biri - inson. Birinchisida ashyolar, ikkinchisida inson makon topgan. Insonda butun borliq o'z aksini topadi. Olloh ham go'zal inson yuzida tajassum etadi. Insonni yaratilish siri so'zda, so'z esa harflar bilan ifoda etiladi, harflar esa inson yuzida zuhr etadi. Bu ta'limot she'riyatda turli shakllarda, jumladan, hurufi hijo usuli vositalarida tashviq etilgan. Uning dastlabki namunalarini ozarbayjon adabiyotining Fazlulloh Naimiy, Imomiddin Nasimiy, Qosim Anvar kabi namoyandalari ijodida uchratamiz. O'zbek adabiyotining Nasimiyga izdosh bo'lgan ko'pgina vakillari qaotorida Boborahim Mashrab ham bu ta'limotdan xabardor bo'lgan va o'z salaflariga taqlidan ba'zi she'rlarni yaratganlar. She'riyatdagi hurufi hijo usulida harflar ramzi, tavsifi orqali insonga xos go'zallik ulug'langan, uning sha'ni madh etilgan.

Boborahim Mashrab ijodida hurufi hijoda yozilgan she'rlar soni to'rtta. Bular g'azal, mustazod, muxammas va masnaviy yo'llarida yozilgan. Shoir g'azalida hurufi hijolarning tartibi quyidagicha:

Ey – alifdek qomatingdin ibtido qildim bukun,

Be – baloyi dog'i darding dilga jo qildim bukun,

Te – tilovat qilg'ay erdim oyati ruxsoringi,
Se – savobi xatmi Qur'on intiho qildim bukun.

G'azalning tugallanish baytlari:

He – hazil ermas kishi dog'ini pinhon aylasa,
Lom-alif – lola sifat choki qabo qildim bukun,

Yo – yorim, dilbarimga dudi ohim sardini,
Hamza – sokin aylabon so'yi samo qildim bukun.²⁸

Ko'rinadiki, g'azalning har bir misrasi arab alifbosidagi harflarning ketma-ketligida kelmoqda. Shuningdek, har bir harfdan keyin shu harf bilan boshlanadigan hijoli so'z kelmoqda. Bu she'rda ohangdorlikni yanada oshirgan.

Oллоh Taolo bandasini barcha maxluqotlardan mukammal, muazzam va muhtasham qilib yaratdi. O'z kalomini Jabroil alayhissalom orqali Muhammad Mustafo (s.a.v.)ga nozil etdi. Usmoni Affon (r.a.) tomonlaridan hech bir nuqsoni bo'lmagan muqaddas kitob holiga keltirildi. «Qur'oni karim»dagi «Baqara» va «Oli Imron» suralarining birinchi oyatlari «Alif, lom, mim», «A'rof» surasining birinchi oyati «Alif, lom, mim, sod», «Yunus» surasining birinchi oyati «Alif, lom, ro» va boshqa ayrim suralarning birinchi oyatlari ana shunday arabiy harflar bilan boshlanadi.²⁹ Bu harflarning ma'nolari yolg'iz Oллоhga ayon. Islom olamining buyuk mashoyixlari bu harflar zaminida qanday ilohiy ma'nolar borligidan ham xabar beradilar.

²⁸ Машраб. Девон. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2006. 223-бет.

²⁹ Qarang: Qur'oni karim: ma'nolarining tarjima va tafsiiri./ Tarjima va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur. – Toshkent, Toshkent islom universiteti, 2009. – 624 b.

Boborahim Mashrab qalbiga orom bergan ilohiy zavq-u shavqlar boisi ham «Qur’oni karim» va uning bag’ridagi har bir sura, har bir oyat va hattoki har bir harfi muborakdir. Shu boisdan Mashrabning hurufi hijodagi she’rlaridan maqsadi, asosan, Olloh Taoloning, Muhammad Mustafo (s.a.v.)ning, choryorlar (r.a.)ning sevgi va ishtiyoqlaridir.

G’azaldagi «ey» yoki «ay» nido so’zlarining birinchi harfi «alif»dir. «Alif» abjadda bir raqamini bildiradi. Ya’ni Olloh bittadir. «Alif»ning qomatga o’xshatilishi yoki qomatning «alif»ga o’xshatilishi Uning rost va to’g’riligiga ishoradir. «Ibtido» so’zidan maqsad Tangri Taoloning hali zamon va makon yo’q ekan azalda borligiga, ya’ni azaliy va abadiyligiga ishoradir. «Be»dan murod balo va ofat, kulfat va ayriliqdir. Olloh Taolodan va shunday oliymaqom, asl vatan bo’lgan jannatdan judo bo’lib, bu g’ariblik dunyosida vaqtinchalik qaror topishning neqadar og’ir dardligini faqat Uning orif bandalari yaxshi biladilar. Shu sababdan ma’shuqadan keladigan dog’i dardni dilga jo qilish oshiq uchun taqdirning buyuk bir in’omidir. Radif «qildim bukun» so’zlari shu bugunni emas, balki hayotim boricha, butun umrim davomida degan ma’noni anglatmoqda.

Mashrabning hurufi hijoda yozilgan mustazodi Muhammad alayhissalom hazratlarini sifatlash, maqtash va madh etishga bag’ishlangan na’tidir. Mustazodning boshdan oxiriga qadar Payg’ambarimiz (s.a.v.) ta’rif, tavsif va vasf etiladilar. Mustazodning dastlabki baytlari quyidagicha boshlanadi:

Ey – Alif ilmi qadiming a’loyi Muhammad,

Be – bori Taolo.

Te – tavbaiy har nafase ohi Muhammad,

Bo’lg’aymu shafloxoh?

Se – savbi dilim qolmadi ham sabr-u qarorim,

Yo'l keldi xatarlik,
 Jim – jomi dili ma'raka oriya Muhammad,
 Bo'lgaymu madadgoh?
 Mustazod quyidagi baytlar bilan tugallanadi:
 Lom-alif – lola kibi qirmizi bo'lubtur,
 Ko'ksimdagi dog'im,
 Yo – yoyi o'shal diyda biynoyi Muhammad,
 Ajranu aziymo.
 G'urbat chahiga tushti: «Zalomno», dedi Mashrab,
 Monandayi Odam,
 Ko'nglida edi ohi zalomnoyi Muhammad,
 Ul aydi: «Zalomno».³⁰

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida mustazod janrida eng ko'p va eng benazir asarlar yaratgan shoirlardan yetakchisi Boborahim Mashrab hisoblanadi. Hozirgacha shoirning yigirmadan ortiq mustazodlari borligi aniqlangan. Yuqoridagi mustazodning birinchi baytida uchta hurufi hijo bor bo'lib, ularning ikkitasi butun misralarda, bittasi orttirilgan kichik misrada berilgan. Qolgan baytlardagi hurufi hijolar har bir to'liq misraning boshida berib borilgan. Mustazod o'n besh baytlik bo'lib, uning maqta' baytida hurufi hijo yo'q. Qolgan o'n to'rt baytda 28 ta birinchi va birinchi zam misradagi bitta bilan 29 ta hurufi hijo bor. Mustazod boshqa mustazodlar kabi, hazaj bahrida, hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod vaznida yozilgan. Bunda har bir to'liq misrada to'rt rukn bo'lib, ikki misra, ya'ni bir baytda sakkizta-musamman rukn mavjud.

Mashrabning hurufi hijoda yozilgan muxammasi 29 band, 145 misradan tashkil topgan. Har bir bandning dastlabki misrasi hurufi hijo bilan

³⁰ Машраб. Девон. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2006. 330-331-бетлар.

boshlanadi. Muxammasning dastlabki bandi Tangri Taologa iltijo, yolvorish, tavallodan iborat. Muxammasda Nuh, Muso, Ya'qub, Yusuf, Dovud, Sulaymon, Muhammad payg'ambarlar, Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali (r.a.), shuningdek, Zulayho, Layli va Majnunlarning saodatlari hamda ularning ma'lum va mashhur kechmishlari, achchiq qismatlari Mashrab nuqtayi nazari orqali yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etiladi. Muxammas ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Uning dastlabki bandi quyidagicha:

Ey – alif otingga qildim muddaodin ibtido,
Xastadil bechoraman, dardimga San qilg'il davo.
Ilmi g'aybiga quloq solsam hamasi bir nido,
Shohi olim San O'zungsan, Rabbano, ey Rahnamo,
Ro'zi mahshar qilmag'il bechoralarni muftalo.³¹

Boborahim Mashrab ijodiy merosi tarkibidagi bunday she'rlari qat'iy bir tizimga solingan va arab alifbosidagi 28 (lom-alif bilan birga 29) ta harfni to'liq o'z ichiga olgan.

Endi Uzlatning turkiy «changiy»da bitilgan muxammasining birinchi bandiga e'tibor qaratsak:

Ey alifdek qomating sarvi chaman yor-yor,
Xoli labing kunjida mushki Xo'tan yor-yor,
Ko'nglim aro kirpiging bo'ldi tikan yor-yor,
Hajring aro tortamen dard-u mixan yor-yor,
Muncha meni qo'ymagil furqat aro yor-yor.³²

Shoirning ushbu muxammasi bir qancha bandlardan iborat bo'lib, arab alifbosidagi hamma harflarga bandlar bitilgan. Hurufi hijoga asoslangan bu muxammasda kitobat san'atining qirralari ko'zga tashlanadi. Ya'ni «alif»

³¹ Yuqodiradi asar, 477-bet.

³² Орзибеков Р.Шеърӣй санъатлар таҳлили. –Самарқанд, СамДУ нашри, 2000. 46-бет.

harfini tik qadga qiyoslash holati, bu bilan harflar yordamida inson uzvlarining tasvirini berish maqsad qilinadi. Lekin shoir Uzlat bu bilan cheklanmagan. Yor qaddini sarvga ham mengzagan. Demak, qad- alif, sarv. Ko'rinadiki, birgina misolda kitobat, hurufi hijo, tashbih san'atlari uyg'unligidan mohirona foydalanib, aytmoqchi bo'lgan fikrni ilgari surgan.

Xulosa qilib aytganda, kitobat, istixroj, hurufi hijo kabi arab alifbosi asosida shakllangan harf san'atlari, xususan, kitobat san'ati o'zbek adabiyoti namoyandalari ijodida keng qo'llanilgan. Ijodkorlar mazkur san'atlar asosida she'rning ma'no kengligini ta'minlagan, lafziy go'zalligini oshirgan.

2. Ogahiy she'riyatida kitobat san'ati. Muhammadrizo Ogahiy (1809-1874)dan bizgacha tarixiy, tarjima asarlar bilan birga katta lirik meros etib kelgan. Shoir she'riyati jamlangan «Ta'viz ul-oshiqin» («Oshiqlar tumori») devoni o'zbek adabiyotida katta o'rin tutadi. Ogahiyning bu devoniga kirgan she'rlarida Umar Xayyom, Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Shermuhammad Munis an'alarining ta'siri va ulug' mutafakkirlar merosining g'oya hamda qarashlari shaklan va mazmunan yangicha talqin etilgan, boyitilgan.

Ogahiy ijodining asosini tashkil etuvchi chuqur falsafiylik va xalqchillik, hayotsevarlik, insonparvarlik, odamiylik va ma'rifatparvarlik, yuksak odob-axloq tashviqi, har jihatdan kamolotga etgan o'rni o'ziga xos falsafiy-axloqiy tarzda yoritilgan. Shoir ijodining mavzu doirasi keng. U qaysi mavzuga murojaat etmasin, badiiyatning cheksiz qirralari, imkoniyatlaridan unumli, mohirona foydalangan. Shuning uchun ham uning she'rlarida fikrlar yorqin, ta'sirchan, jozibali namoyon bo'ladi.

Badiiy so'zning ma'no miqyosidan keng foydalanib, ya'ni ma'no qirralarini topish jihatidan ham Ogahiy Navoiydan keyin «eng ko'p va eng xo'b» aytgan shoirlardandir. U ataylab badiiy san'at qo'llamaydi, uning qalamiga tushgan so'z san'at bo'lib muhrlanadi.

So'z labidan ul ado birla chiqarkim rashkidin,

Tushgusidir la'li serob-u duri maknung'a ot.³³

Mazkur baytda kamdan kam san'atkor yaratishga muyassar bo'lgan nodir ma'naviy san'at iyhomi yuzaga kelgan. «So'z» - til birligi, kalima ma'nosida qo'llanganligi aniq, ravshan anglashilib turibdi. Shu ma'no bilanoq baytdan tugal mazmun chiqadi. Iyhomi san'atining sehri shundaki,

³³ Огаҳий. Сарв қомат кўрмишам. – Тошкент, Янги аср авлоди. 2007. 42-бет. Мазкур манбадан олинган кейинги мисолларнинг саҳифалари қавс ичида кўрсатилади.

shoir forsiy tildagi «soʻz»ning maʼnolarini ham bir yoʻla mujassamlashtirgan. «Soʻz»ning yonish, kuyish, haroratli boʻsa maʼnolari yashirin ifodalangan. Aslida, shoirning bosh maqsadi «soʻz»ning shu maʼnolaridan kelib chiqadi.

Mumtoz adabiyotimiz bagʻrida yana shunday imkoniyatlar borki, u eski oʻzbek alifbosidagi har bir harf shaklidan badiiy tasvir vositasi sifatida foydalanishga asoslangan harf sanʼatidir. Ogahiy ijodida ham arab alifbosiga asoslangan kitobat, istixroj sanʼatlari alohida oʻrin tutadi.

Ogahiy sheʼriyatining gultoʻji boʻlgan «Ustina» radifli gʻazalning birinchi baytidayoq, kitobat sanʼatining goʻzal namunasi namoyon boʻladi. U quyidagicha:

Mushkin qoshining hayʼati ul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun nas keltirur nun eltibon sod ustina. (44)

Bayda keltirilgan «nun» (ن) va «sod» (ص)dan «nas» (نص = ص + ن) soʻzi hosil boʻladi. Nas – arabcha soʻz boʻlib, buyruq, amr, farmon maʼnolarini anglatadi. Demak, maʼshuqaning qora (mushkin) qoshlarining jallod koʻzining ustida hayʼat aʼzolari kabi qator terilib turibdi. Goʻyoki oshiqning oʻlimi haqidagi hukmni – «nas»ni kutib turgandek. Bu istixroj sanʼatidir, yaʼni arab harflari orqali maʼlum soʻz kelib chiqmoqda va asar mazmunini ochishda muhimdir. Ahamiyatlisi shundaki, baytda qoʻllangan harf sanʼatining qirralari bu bilan cheklanmaydi. Baytni boshqacha tushunishimiz ham mumkin. Maʼshuqaning qora qoshlari jallod koʻzlari ustida hayʼat aʼzolari kabi terilib olganki, bu tasvirni biz harflarning

joylashuvida ham ko'ra olishimiz mumkin. Ya'ni «nun» (ن)ni «sod»³⁴ (ص) harfining ustiga olib borib qo'ysak, ko'z va qosh tasviri hosil bo'ladi. Bu esa kitobat san'atining go'zal namunasidir.

Ko'rinadiki, istixroj va kitobat bir baytning o'zida shunday uyg'unlashganki, harflar yordamida ham so'z, ham ma'shuqa uzvlari bilan bog'liq tasvir hosil bo'lgan.

«Nun»ning qoshga qiyos etilishi Ogahiyning 9 bandlik bir musaddasida ham kuzatiladi. Musaddas quyidagi band bilan boshlanadi:

Do'stlar, mohvashim husni safosini ko'rung,
Quyosh oso yuzining nur-u ziyosini ko'rung,
Xizrdek saba xati nash'u namosini ko'rung,
Sarv yanglig' qadi-yu noz-u adosini ko'rung,
Qoshi yosig'a boqing, ko'zi qarosini ko'rung,
Jonima har birining javr-u jafosini ko'rung. (81)

Musaddas oshiqona ruhda bo'lib, unda ma'shuqa jamoli vasf etilgan. Bandda an'anaviy tarzda ma'shuqaning husni, yuzi, xati, qaddi, noz-u adosi, qoshi, ko'zi haqida so'z bormoqda. Oy kabi yorning husni tengsiz, quyoshdek yuzi nurli, xati (lab ustidagi tukchalari) Xizrdek go'zal, qaddi sarv, ko'zi qora, qoshi esa «yo»dir. Arab alifbosidagi «yo» (ي)ning egikligi qoshning egikligiga qiyoslangan. Qoshning «yo» harfi bilan tasvirlash Alisher Navoiy ijodida ham kuzatiladi. Hazratning «Deyin» radifli g'azali

³⁴ Bunda «sod» harfining so'z boshi holati nazarda tutilmoqda.

«Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin» misrasi bilan boshlanadi. Ogahiy yuqoridagi musaddasida Navoiy an'anasini davom ettirib, she'rga navoiyyona ruh bag'ishlagan. Mazkur musaddas mazmuni, ruhi, tasvir ob'ektlari bilan Navoiyning yuqorida tilga olgan g'azaliga juda ham yaqin turadi. Ogahiy o'zining ma'naviy ustozini Navoiyga bo'lgan muhabbatini ana shu musaddasida ham namoyon etgan. Musaddasning oxirgi ikki misrasi har band oxirida takror kelganki, bu she'rga o'ziga xos ruh, ohangdorlik bag'ishlagan, mazmunni kuchaytirib bergan.

«Yo» harfining egik va egriligidan ijodkor boshqa o'rinlarda ham o'rinli foydalangan. Jumladan, «yoqilmadi» so'zi shakldoshlik hosil etgan quyidagi tuyug'ining birinchi baytida «yo» orqali egik qomatga ishora etadi:

G'am yuki to qomatim yo qilmadi,
Ohim o'tig'a falak yoqilmadi,
Qilmadi rahmi mango, xud o'zgaga,
Bilmadimkim, qildimu yo qilmadi. (90)

Ogahiy harf san'atidan foydalanar ekan, «alif» (ا) harfiga ko'p murojaat etgan:

Jong'a orom berur jonda alifdek turishing,
Ko'nglim oromin olur ruhi ravondek yurishing. (56)

Yoki,

Qading hijronida jonim xarob o'lsa, tong ermaskim,
Latofatda sanga zebo alifdur jon aro qomat. (87)

Har ikkala baytda ham «alif» (ا) orqali yorning tik qaddi tasviri berilgan hamda ularning («alif» harfining va qadning – D.Q.) «jon» so'zining markazida turganligi ta'kidlangan. Darhaqiqat, «jon» so'zi uch harfdan tashkil topgan bo'lib (ج + ن + ا = خان), undagi «alif» tik, raso

ekanligi bilan «jim» va «nun»dan farqlangan. Ma'shuqa qaddi qomati ham oshiq jonidir. Shuning uchun ham Ogahiy yozadi:

Boshdin oyoqing jon erur, jonlar sanga qurbon erur,
Jono, ayoq-u boshingga olam gado, man ham gado.³⁵

Ushbu baytda garchi harflar kuzatilmasa-da, yuqorida tahlil etilgan baytlardagi mazmunni kuzatamiz. Ma'shuqaning boshdin oyog'i jon. Bu jon uchun jonlar (oshiqlar) qurbon. «Jon» so'zining ham boshi («jim») va oyog'i («nun») harakatda, oralig'da esa jonning markazi jism («alif»). Bir butun jon – jonodir.

Dog' uzra alifdurmu ko'ksim uzra chekmish hajr,
Yo dard sipehrlarida mehvarmu ekan oyo?

Mazkur baytda shoir «dog'» (داغ) va «dard» (درد) so'larining yozilish shaklidan kelib chiqib, harf o'yini hosil qilgan.

Biz ishimizning birinchi bobida «alif» harfida foydalangan ko'pgina shoirlar ijodiga to'xtalgan edik. Tahlillarimizga tayanib aytishimiz mumkinki, aksariyat o'rinlarda «alif» tik qadni bildirgan. Bu ham bo'lsa ma'shuqa qaddi. Ogahiy «alif» harfini faqat oshiqona she'rlaridagina emas, balki ijtimoiy mavzudagi asarlarida ham keng qo'llagan va kitobat san'atining imkoniyat qirralarini kengaytirgan. Quyidagi misollarga e'tibor qaratsak:

Alifdek qadlari nundek bo'lib xam,
Tushub abrularig'a Shamradek chin...

³⁵ Qosimov B. va boshqalar. Adabiyot. (O'rta umumta'lim maktablarining 10-sinfi uchun majmua) – Toshkent, O'qituvchi, 2004. 314-bet.

Sovuq el jismin afgor aylamoqqa,
Chiqormish ozidan dandonayi sin.³⁶

Yoki,

Birovkim topsa yodek tiynat-u kajlik bila taxmir,
Bo'lur komi o'qi doyim murod omojig'a marqun.

Birovkim bo'lsa sidq-u rostlig' ichra alif yonglig',
Qadi bori mihan ostida bo'lg'ay ul sifatkim nun.³⁷

Birinchi misol Ogahiyning «qish» g'azalidan olingan bo'lib, unda sovuqda qiynalgan odam qiyofasi obrazli tasvirlangan. Sovuq shunchalik kuchliki, uning qiyofasini Shamra – yovuzlik timsoliga o'xshatiladi. Shamra insonlarga shafqat qilmaganidek, sovuq ham hech kimni ayab o'tirmaydi. Sovuq insonning «alif» (ا) kabi tik qaddini «nun» (ن)dek egadi. Bu o'rinda «alif» va «nun» bir-birga zid holatni (tik va egik) hosil etmoqdaki, bu oshiq va ma'shuqa holati emas, balki ijtimoiy hayotdagi insonning ikki holatdir. Arab alifbosidagi «sin» harfining har bir halqasi tishga o'xshashi ma'lum. Shoir ana shu o'xshashlikka asoslangan holda sovuqning tishlari (muz parchalari)ni «sin» qiyoslanmoqda. Ijtimoiylik kasb etgan ikkinchi misolda shoirning inson va hayot haqidagi falsafiy fikrlari tasvirlangan. Ijodkor hayotda egrilikni kasb qilgan kishini «yo»ga (ي), halol va to'g'ri insonni «alif» (ا)ga o'xshatadi. Egri murodiga tez, oson yetadi, lekin to'g'ri, halol inson hamisha g'am ostida bo'ladi. Shuning uchun to'g'rining «alif»dek qaddini bu dunyo «nun» (ن)dek egib tashlaydi. Bu o'rinda ham kitobat san'ati tazod (alif va nun) bilan uyg'unlashgan. Baytlardagi uch harfning

³⁶ Yuqoridagi asar, 325-bet.

³⁷ Yuqoridagi asar, 326-bet.

(yo , alif, nun) shakli muallifning poetik niyatini ro'yobga chiqarishda juda qo'l kelgan.

Quyidagi baytdagi tasvirda ham harflar shakli orqali kitobat, ularning bir-birini inkor etuvchi mazmuni va ko'rinishi asosida tazod yuzaga kelgan:

Kalidi ganji orzu qilib,
Alif oso qadim bo'lubdur dol.³⁸

Inson hayotda yashar ekan, komillik kasb etmog'i lozim. Komillikka erishuvning yo'li «kalidi ganj»dir. Xazina kalitini shariat ahkomlari, tariqat riyozati orqali topish mumkin. Shunday ekan, nasihatdan, ma'rifatdan iborat islom dinining qonun-qoidalarini to'liq, to'g'ri bajarmoq lozim. Bu amallardan biri ro'za tutmoqdir. Yuqoridagi baytda ro'za tutgan lirik qahramon (shoirning o'zi – D.Q.) tasviri berilgan. Ma'lumki, ro'za parhezkorlikka, jismni va ruh pokligiga asoslanadi. Shuning uchun inson bu vaqtda kam yeydi, kam deydi. Lirik qahramon ham komillik ganjining kalitini topmoqni niyat qilgan, ro'za tutgan. Natijada «alif»dek (l) tik qaddi «dol» (ـ) yangliq bukuk bo'lib qolgan. Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Ro'zada inson jismoniy azoblanishi kerakmi? Albatta, yo'q. Ro'zada bunday holat ko'zda tutilmaydi. Bir yilda bir oy ro'za tutish inson organizmiga ma'lum ma'noda «dam» beradi, moddalar almashinuvi, me'da faoliyatini normallashtiruviga yordam beradi. Bu tibbiyot nuqtayi nazaridan ham asoslangan. Lekin sog'ligi to'g'ri kelmaydigan insonlar uchun ro'za tutmaslik gunoh emas. Shunday ekan Ogahiyning yuqoridagi baytini qanday tushunmoq mumkin? Buni izohlashdan oldin tasavvufdagi bir holatni yodga olsak. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra qanoat bilan yashash muhim sanaladi. Tariqat yo'lga kirgan aksar so'fiylar o'z jismlarini ko'tara olishga yetgudek ovqat tanavvul etganlar. Hatto qadrlarining egikligi bir fazilat hisoblangan.

³⁸ Орзибеков Р.Шеърӣ санъатлар таҳлили. –Самарқанд, СамДУ нашри, 2000. 41-бет.

Shu nuqtayi nazardan baytga yondashsak, ijodkorning ro'zadan ozor chekkanligini emas, balki o'z murodiga etishda «kalidi ganj»ni topganligini bilib olamiz.

Ijodkor harflar imkoniyatlarini yanada kengaytirgan. Masalan, quyidagi parchada «dol» ni zulfga mengzaydi:

La'li shirinmu yor tutgan qora xol ostida,
Yo qo'yilmish nuqta aylarda raqam bol ostida.

Tushmish-u qotil ko'zi ostig'a zulfining xami,
Yo ko'runmishdir hamul jallodning dor ostida. (45)

Yorning lablari ostidagi xol «bol» (ب + ا + ل = بال) so'zi ostiga qo'yilgan nuqtaga, jallod ko'zlari atrofidagi parishon zulfi «dol» (د) harfi bilan ifodalanmoqda.

Arab alifbosidagi harflar ma'lum bir raqamlarni bildiradi. Abjad hisobidan foydalangan holda ijodkorlar muammoli, topishmoq she'rlar, chistonlar, tarixlar yaratganlar. Bunda ham ba'zan arab alifbosidagi harflarning yozilishi, shakli ahamiyat kasb etgan.

Xalq og'zaki ijodidagi topishmoqli, sirli she'rlar hamda fors-tojik, ozarbayjon, turk adabiyolarida chiston (u nimadir?), topmacha, bilmacha istilohlari bilan atalgan bunday she'r namunalarining ta'siri tufayli XV asr o'zbek adabiyotida ham chiston deb atalgan janr paydo bo'ldi. Uning ilk namunalari hozircha Alisher Navoiy ijodida uchrashi qayd etilgan. Alisher Navoiydan oldin o'tgan shoirlarimiz tomonidan shunday she'rlar yaratilganligi ma'lum emas. Demak, chiston lug'zlarning o'zbek adabiyoti janrlari tarkibidan o'rin olishi buyuk ixtirochi shoir Alisher Navoiy ijodi bilan bog'liqdir, deyish mumkin. Navoiydan so'ng bu an'ana Shaboniy, Huvaydo, Uvaysiy, Munis, Fano Istaravshaniy, Shavqiy Kattaqo'rg'oniy,

Ogahiy kabi shoirlarimiz tomonidan davom ettirildi. Ogahiy chistonlari ham yoshlar, ham kattalar zehnigi kuchli ta'sir ko'rsata oluvchi asarlar ekanligini alohida qayd etib o'tish joizdir. U bu sohada ham Alisher Navoiy ijodidan, u yaratgan lug'z–chistonlardan andoza oldi, uning bu sohadagi an'analarini ijodiy davom ettirdi. Ma'lumki, Navoiy o'zbek tilida o'nta, fors–tojik tilida to'qqista asosan qit'a shaklidagi lug'z–chistonlar yozgan edi. Bu chistonlar ichida, ayniqsa, «tanga», «anor» kabi ashyolar nomi yashiringan, abjad yo'li bilan emas, balki oddiy topqirlik, o'ylash, fikrlash yo'li bilan topiluvchi chistonlari mashhur edi.

Biz shoira Uvaysiyning «anor» haqidagi mashhur chistoni hamda Ogahiyning «tanga» haqidagi chistoni bevosita Navoiyning shu ashyolar nomi chiqadigan chistonlari ta'sirida yozilgan deb bemalol ayta olamiz. Ogahiyning «Ta'viz ul–oshiqin» devonida «tanga», «otashgir», «vafo», «davlat» nomlari chiqadigan to'rtta qit'a shaklidagi chistonlari mavjud.

Shular ichida «Tanga» chistoni bevosita Alisher Navoiyning shu nomdagi chistoni ta'sirida yaratilganligi shubhasizdir. U bu mashhur chistonida «jussasi tirnoq yuzidek kichik bo'lsa–da, ham ulug' badavlat odamlarning, ham bechora, muhtoj odamlarning hayolini, es–hushini o'ziga mahliyo qilib, ularni bezovta qilib, ishqini o'ziga qaratgan narsa haqida so'z ochadi. Tanganing tashqi, sirtqi belgilariga ishora qiladi. Chunonchi, uning ikki yuziga xatlar, raqamlar bitilganligini ham eslatib o'tadi. Kimki, shunday narsaga ega bo'lsa, uning jamiyatdagi mavqeyi, turmushi baland ekanligini aytadi. Shunday narsaga ega bo'lmaganlar esa har qancha dono, bilimli bo'lmasin qismati, ahvoli yomondir. Ogahiy bu bilan mol–dunyoga hirs qo'yishlikni kishilar uchun ham baxt, ham baxtsizlik keltiruvchi ijtimoiy bir ofat ekanligini ta'kidlamoqchi bo'ladi. Shuning uchun ham tanganing sifatlarini tasvirlash jarayonida uning odamlarga ko'rsatayotgan ta'siriga

kulgili, hajviy tus berishga o'tadi. U tantani oshiqlarni, sevgi yo'lida es-hushidan ajralayozgan kimsalarni shaydo qilgan ma'shuqaga o'xshatadi hamda oshiqlar dilidan izhor etiluvchi visol, hijron, iltifot kabi so'zlarni ham qo'llaydi. Shunday o'xshatish, majoz, qiyoslash kabi tasvir vositalari orqali, xuddi Navoiyga o'xshab bu yaramas jamiyatda pulning, oltin-u kumush tangalarning qanchalar nozik, xatarli rol o'ynayotganligini uqtirmoqchi bo'ladi. Navoiyning barcha chistonlari oddiy topishmoq usuli bilan yaratilgan. Ogahiyning «tanga» haqidagi chiston ham shunday. Ogahiy chistonining to'liq matnini keltirish orqali u Navoiy an'alaridan nechog'lik ijodiy ta'sirlanganligini, bu ikki ulug' shoir asarlarining har biri original asarlar ekanligini yaqqol anglab olish mumkin. Ogahiy chistoni matni:

Bu ne dilbarkim tani siymin ulub,
Badr yanglik surat-u siymosidur.
Xat butub ikki yuzida sarbasar,
Ziynat afzoyi ruhi zebosidur.
Jussasi tirnoq yuzi yanglik kichik,
Lek ulug'lar ishqining rasvosidur.
Vaslini istab jahon bozorida,
Olam ahli boshida savdosidur.
Ham faqir-u, ham g'ani devonasi,
Ham qari-yu, ham yigit shaydosidur.
Topsa har adno visolin nogaxon,
E'tibor ichra ulug' a'losidur.
Yetsa har avloga gar hajri oning,
Jumla adno xalqining adnosidur.

Topmasa gar iltifotin har kishi,
Xordur, garchi jahon donosidur.³⁹

Ogahiyning bu chistonida tangaga xos belgilar, sifatlar qayd etilmoqda. Badr (oy), jussasi tirnoq yanglik dumaloq, kichik, ikki yuziga xat bitilgan, zebo sifat siymo hokazolar. Kitobxon shu belgilarni mushohada qilib ko'rib, tanganing shakli va sifatiga hayolan qiyoslab chistonda «tanga» so'zi yashiringanligini topib olishi kerak.

Ogahiyning qolgan «otashgir», «vafo» va «davlat» so'zlari yashiringan chistonlari esa chiston yaratishning yana bir murakkabroq, muammolarga o'xshashroq usuli – abjad yo'li bilan yozilgandir. Ma'lumki, arab alifbosidagi har bir harf ma'lum bir sonni ifodalaydi. Shoirlar chiston misralarida masal–majoz shakllarida ayrim narsalar «boshi etmish», «oyog'i yuz», «badani o'ttiz» qabilida raqamlar orqali ifodalaydilar. Bu chiston yaratishning abjad hisobiga asoslangan usulidir. Shunday muammo–chiston namunalari Shaboniy, Huvaydo, Shavqiy Kattaqo'rg'oniylar ijodida uchraydi. Ogahiy chiston yaratishdagi shu usulni ham qo'llagandir. Masalan, uning quyidagi atigi to'rt misralik, raqamlar adadini abjad yo'li bilan so'zga aylantirganda «vafo» so'zi kelib chiqadigan chistonida shunday:

Ul na yanglik turfa qushkim, oltidur oning boshi,
Turfaroq bu kim oyoq birdur, qanot sakson ango.

Garchi oning bu zamon ahli aro bordur oti,
Lek yo'qlug' oshiyoni ichradur maskan ango.

Ko'rinayotirki, she'r misralari tarkibida 6, 80, 1 raqamlari keltirilayotir. Abjad hisobida 6 raqami – (و), sakson – (ف), bir raqami esa – (۱)ga

³⁹ Орзибеков Р. XIX асрнинг биринчи ярми ўзбек адабиёти. –Самарқанд, СамДУ нашри, 2001. 109-110-бетлар.

teng keladi. Bu harflarning qo'shiluvidan «vafo» so'zi hosil bo'ladi. Shoir «vafo» so'zini abjad orqali yashirib tasvirlash orqali, zamon ahli aro oti bor, ammo o'zi yo'q, ya'ni «yo'qlug' oshiyoni»da maskan tutgan ijtimoiy hodisa haqida hukm chiqaradi. Demak, vafo, vafodorlik bu og'ir zamonda anqoning urug'idek qadrsiz bo'lib qolganidan afsus chekadi.

Ogahiyning «davlat» so'zi yashiringan chistoni ham shunday ijtimoiy-tanqidiy ahamiyatga ega bo'lib, abjadga asoslangan.

Ul nechuk farrux humokim, boshi oning to'rtidur,
Bo'ynidur olti, tani o'ttiz, oyoqi to'rt yuz.

Soya har kim boshiga solsa topib iqbolu joh,
Guliston o'lgay oning olida jumla tog' tuz.

Topmaganga soyasin bazm-u tarab zindon o'lub,
Ham qad ila nola aylar har tun andog'kim qubuz.

Shoir «davlat»siz kishining qaddi bukikligi, uning qubuz kabi nola qilishdan boshqa iloji yo'qligini ta'kidlamoqda. Chistonda keltirilgan 4 – dol (د), 6 – vov (و), 30 – lom (ل), 400- to (ت)ga teng. Bu harflar birikuvidan «davlat» so'zi kelib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, Muhammadrizo Ogahiy keng ko'lamli shoir sifatida o'zbek she'riyatining badiiyat qatlamlari imkoniyatlaridan mohirona foydalanib, uni yangi qirralar bilan boyitdi.